

TALABALAR UCHINCHI CHORAKDAN BOSHLAB TAHSILNI YANGI SINFXONALARDA DAVOM ETADILAR



Talabalar uchinchi chorakdan boshlab tahsilni yangi sinfxonalarda davom etadilar

So'x tumani 4-sektor hududidagi Chumoqcha mahallasida joylashgan 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi 20 asrning 80-yillarida qurilgan bo'lib, mazkur muassasada ayni kunda 49 nafar o'qituvchilar yosh avlodga bilim berib kelishmoqda.

Muassasada 564 nafar o'quvchilar tahsil olishadi va tabiiyki, maktabda ta'lim ikki smenada olib boriladi. Mahalla ahlining talab va istaklari hamda davlatimiz rahbari, Respublika hukumatining berilgan e'tibori tufayli maktabga yangi qo'shimcha bino qurilib, bugun yangi binoning foydalanishga topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda ishtirok etgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev barcha o'quvchi va o'qituvchilar, Chumoqcha ahlini ushbu unutilmas voqelik bilan tabrikladi. Endi o'quvchilar tahsilni uchinchi chorakdan boshlab yangi va zamonaviy binoda boshlashadi.

Tadbirda maktab ma'muriyati va quruvchilarga tuman hokimligining tashakkurnomalari va esdalik sovg'alari taqdim etildi. Maktabning yangi binosidagi sinfxonalarda bo'lib o'tgan suhbat va uchrashuvda Respublikamizda ta'lim sohasiga berilayotgan e'tibor uchun xayrixoh bo'lish va Vatan ravnaqiga hissa qo'shish eng asosiy vazifa ekanligi ta'kidlandi.

Ma'lumot uchun: maktabda qurilgan yangi qo'shimcha bino 180 o'rinli bo'lib, qurilish ishlari "Far-Kamoliddin" xususiy korxonasi tomonidan amalga oshirilgan. Bino qurilishiga 2 milliard 400 million so'm mablag' yo'naltirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-13 18:13:00